

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/14.07.2022.B/QX.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

MARDONOVA GULSANAM O‘KTAM QIZINING

**QIZILMIYA (*GLYCYRRHIZA GLABRA* LINN) O‘SIMLIGIDAN
AJRATILGAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLARNING BIOLOGIK
FAOLLIGI**

03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mardonova Gulsanam O'ktam qizi

Qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* Linn) o'simligidan ajratilgan endofit mikroorganizmlarning biologik faolligi3

Мардонова Гульсанам Уктам кизи

Биологическая активность эндофитных микроорганизмов, выделенных из солодки (*Glycyrrhiza glabra* Linn) 21

Mardonova Gulsanam Uktam kizi

Biological activity of endophytic microorganisms isolated from licorice (*Glycyrrhiza glabra* Linn) 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/14.07.2022.B/QX.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

MARDONOVA GULSANAM O‘KTAM QIZINING

**QIZILMIYA (*GLYCYRRHIZA GLABRA* LINN) O‘SIMLIGIDAN
AJRATILGAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLARNING BIOLOGIK
FAOLLIGI**

03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B968 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyeva Dilfuza Rustamovna

qishloq xo‘jalik fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Fayziyev Vohid Bahromovich

biologiya fanlari doktori, professor

Abdullayeva Yulduz Davronovna

biologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Dissertatsiya himoyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/14.07.2022.B/QX.10.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “_____” kuni soat “_____” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Tel.:(+99871) 237-19-31, faks:(+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz)

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining axborot resurs markazida taninshish mumkin (№__ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Tel.:(+99871) 237-19-31, faks:(+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____” kuni tarqatildi.
(2024 yil “_____” dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.N. Kushanov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi o‘rinbosari, b.f.d. professor

F.B. Eshboyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

V.B. Fayziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo bo'yicha dorivor qizilmiya (*G. glabra*) o'simligi 43,181 mln. gektar maydonda ekilib, biologik xomashyo zaxirasi 128,109 mln. tonnani tashkil etadi. Bu o'simlikdan olinadigan mahsulot tabobatda, oziq-ovqat, kosmetika, yengil sanoat tarmog'ida hamda qishloq xo'jaligida keng miqyosda foydalaniladi. Jahon bozorida qizilmiya xomashyosiga bo'lgan talabning kattaligi tufayli uning tabiiy holdagi maydonlari kamayib ketgan. Jumladan bu miqdor Ozarbayjonda - 2200 gektar (umumiy maydonning 3,6%), Qirg'izistonda - 902 gektar (1,4%), Qozog'istonda - 27315 gektar (62,6 %), Rossiyada - 1763 gektar (2,9%), Turkmanistonda - 10776 gektar (17,7%), Tojikistonda - 142 gektar (0,24%), va Mo'g'ulistonda - 2180 gektar (3,5%) maydonni tashkil etadi.

Dunyo mamlakatlari, maydoni kamayib borayotgan qizilmiya xomashyosiga bo'lgan talabni qondirish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun qizilmiya o'simligining ekin maydonlarini ko'paytirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlarda almashlab ekish tizimlari orqali ekinlardan ekologik sof, mo'l va sifatli hosil olishga, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko'p bo'lsada, biroq qizilmiya o'simligi bilan birga assotsiatsiyada yashovchi mikroblar va ularning o'simlik uchun foydali xususiyatlari yaxshi o'rganilmagan. Bunday tadqiqotlar qizilmiya uchun biologik o'g'it yaratishga yordam beradi.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda qizilmiya yetishtirib uning ildizini xorijga eksport qiladigan fermer xo'jaliklari soni ortib bormoqda. Ayniqsa Qoraqalpog'iston qizilmiya o'stirib qayta ishlashda yetakchi hudud hisoblanadi. Shunday bo'lsada fermerlar qizilmiyani o'stirishda katta muammolarga duch kelishmoqda, jumladan qalamchadan o'stirish qiyinligi, o'simlik ildizi kichik, yaxshi rivojlanmaganligi va o'simlikning sekin o'sishi uni yetishtirishdagi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, abiotik va biotik omillar o'simlik o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitlarda o'simlikni o'sishini jadallastiradigan, turli stress faktorlarga chidamliligini oshiradigan va turli kasalliklardan himoya qiladigan biologik texnologiyalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni yetishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 63-sonli¹ qarorida ushbu o'simlikka oid tegishli chora tadbirlar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi PF-4670-sonli² "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni yetishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 63-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3540247>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi PF-4670-sonli "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni // <https://lex.uz/docs/-4785256>

madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qizilmiya – *G. glabra* *Fabaceae* oilasiga mansub o'simlik bo'lib, hozirgacha 30 ga yaqin turi aniqlangan (Chjan va b., 2009; Pastorino va b., 2018). Ushbu o'simlikning tarqalishi dunyoning yarim tropik va tropik mintaqalarida, shu jumladan Janubiy Yevropa, Markaziy Osiyoda tarqalgan (Sharma va b., 2005). Bugungacha *G. glabra* agrotexnologiyasini Ashurmetov va b., (1998), Mirzacho'l sharoitida ildizpoya qalamchalarini ekish uslublari va muddatlarining optimal sharoitlarini o'rganish bo'yicha Badalov va b., (1979), sho'rlangan tuproqlar sharoitida *G. glabra* ekish va tuproq meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha Xaydarov va b., (1986). *G. glabra* tuproq unumdorligiga ta'sirini Musurmonov va b., (1989) dala tajribalarida o'rganganlar.

Bizga ma'lumki, qizilmiya boshqa o'simliklar kabi mikroblar bilan assotsiatsiyada yashaydi. Xitoyda qizilmiya o'simligidan endofit zamburug'lar *Aspergillus* va *Chaetomium* turlari ajratib olingan (Dong va b. 2015). Qizilmiya o'simligidan *Rhizobiaceae*, *Pseudomonas*, *Novosphingobium* va *Pantoea* turlari ham ajratib olingan (Dang va b. 2020). He va b. (2021) Shimoliy-g'arbiy Xitoyning cho'l hududlarida o'sadigan yovvoyi qizilmiya o'simligidan *Acremonium nepalense*, *Acrocalymma vagum*, *Alternaria chatarum*, *Alternaria chlamydospora*, *Alternaria longissima*, *Darksidea alpha*, *Paraphoma chrysanthemicola* va *Preussia terricola* endofitlari ajratib olingan hamda qurg'oqchilik stressi ostida o'simlikka ta'siri o'rganilgan. *A. chlamydospora* va *P. terricola* o'simlikning umumiy biomassasini va ildiz biomassasini oshirgan. *Acrocalymma vagum* va *Paraboeremia putaminum* ta'siri o'rganilganda o'simlik biomassasiga, ildiz uzunligiga, umumiy ildiz uzunligiga, ildiz diametriga, glitsirrizik kislota va glitsirrizin tarkibiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan (He va b. 2020).

G. glabra dan ajratilgan endofit zamburug'lar indol sirka kislotasini ishlab chiqarishini kuzatgan (Arora va b., 2019). *G. glabra* L. dan ajratilgan endofit zamburug' *Aspergillus eucalypticola* tomonidan glabridin olish o'rganilgan (Ganjabadi va b., 2023).

Mohamad va b., (2018.) tomonidan *G. glabra* dan ajratilgan endofit *Bacillus atrophaeus* ni, *Verticillium dahliae* ga qarshi antogonizmi o'rganilgan. Wang (2022) *Bacillus cereus* G2 endofiti sho'rlanish sharoitida qizilmiya o'simligidagi osmotik va oksidlovchi stressni yengillashtirishini aniqlagan. Goudarzi va b., (2023) qizilmiya o'simligining o'sishini rag'batlantiruvchi bakteriya (PGPB) larni aniqlashgan.

Respublikamizda *G. glabra* endofit bakterialari o'rganilmagan. Mintaqamizda qizilmiya bilan assotsiatsiyada yashovchi endofit bakteriyalarni

molekular biologik metodlar bilan aniqlash, qolaversa o‘simlik bilan birga assotsiatsiyada yashovchi mikroblarning biologik xususiyatlari va o‘simlik fiziologiyasidagi faoliyatini o‘rganish katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti Ecosystem and Biomes O‘zbek-Xitoy qo‘shma laboratoriyasida amalga oshirildi. Shinjon-Uyg‘ur avtonom hududi va Xitoy Fanlar Akademiyasi tomonidan moliyalashtirilgan “Shinjon va O‘zbekiston dorivor o‘simliklari bilan assotsiatsiyada yashovchi endofitlarning xilma-xilligi va bioaktiv faoliyatini qiyosiy o‘rganish” (2019-2022) loyihasi doirasida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi: Qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* Linn) o‘simligi ildizidan ajratib olingan endofit bakteriyalarning bioxilma-xilligi va o‘simlikka foydali xususiyatlarini o‘rganish va o‘simlik o‘sishi va rivojlanishiga ta’sirini tadqiq qilish, hamda ildizda yashab ketish xususiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- qizilmiyadan endofit bakteriyalarni ajratib olish va turigacha aniqlash;
- endofit bakteriyalarning o‘simlikka foydali xususiyatlarini o‘rganish;
- endofit bakteriyalarning qizilmiya urug‘lari unuvchanligi va o‘simta (nish) o‘sishiga ta’sirini o‘rganish;
- endofit bakteriyalarning o‘simlik o‘sishi va ozuqa o‘zlashtirishiga ta’sirini aniqlash;
- endofit bakteriyalarning o‘simlik ildizida raqobatli kolonizatsiyasini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* Linn) o‘simligi ildizidan ajratib olingan endofit mikroorganizmlar o‘rganilgan.

Tadqiqotning predmeti qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* Linn) o‘simligi ildizi va poyasidan mikroorganizmlarni ajratib olish, turigacha aniqlash, biologik faolliklarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni bajarish jarayonida mikrobiologik, molekulyar genetik (DNK ajratish, PZR, sekvinlash) bioinformatik, biokimyoviy, mikologik, biotexnologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Ilk bor O‘zbekistonda o‘sadigan qizilmiya (*G. glabra*) ildizidan *Paenibacillus polymyxa*, *Achromobacter piechaudii*, *Enterobacter hormaechei*, *Pantoea ananatis*, *Paenibacillus amylolyticus*, *Achromobacter xylosoxidans*, *Pseudomonas azotoformans*, *Enterobacter ludwigii*, *Bacillus velezensis*, *Escherichia coli*, *Enterobacter cloacae*, *Kosakonia cowanii*, *Citrobacter freundii*, *Bacillus cereus*, *Enterobacter hormaechei*, *Pantoea gaviniae* va *Klebsiella pneumoniae* turlarga mansub endofit bakteriyalar ajratib olindi va identifikatsiya qilindi;

-Ajratib olingan endofitlar sho‘rlangan (0.5% NaCl) sharoitda qizilmiya urug‘lari unuvchanligi va unish quvvatini oshirishi va o‘simlik o‘sishini yaxshilashi aniqlandi;

- O‘simlikning o‘sishi va rivojlanishiga bakteriyalarning ta’sir mexanizmi ularning raqobatbardosh koloniyalanish xususiyatiga bog‘liq ekanligi isbotlandi;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda o‘sadigan qizilmiya (*G. glabra*) o‘simligidan endofit bakteriyalar ajratib olindi, turigacha aniqlangan bakteriyalar NCBI ma’lumotlar bazasida ID raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi;

- Qizilmiya urug‘lari unuvchanligi va unish quvvatini oshirish xususiyatiga ega bakteriyalar tanlab olindi. O‘simlik o‘shini jadallashtiruvchi va ozuqa elementlarni o‘zlashtirishini yaxshilovchi va raqobatbardosh kolloniyalanuvchi bakteriyalar saralab olinib, ulardan biologik preparat yaratish tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlillar va zamonaviy mikrobiologik, molekulyar-genetik biotexnologik usullardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, ilmiy natijalar statistik tahlillardan o‘tkazilganligi, ya’ni MEGA 11 dasturlari yordamida bioinformatik tahlil qilinganligi, shuningdek GenBANK NCBI ma’lumotlar bazasida o‘rganilgan izolatlarning nukleotidlar ketma-ketligi joylashtirilganligi, natijalar respublika va xalqaro konferensiyalarda taqdim etilgani va tadqiqot natijalari OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Respublikamiz hududida o‘svuchi qizilmiya endofitlarining bioxilma xilligi aniqlandi.

Paenibacillus polymyxa, *Pantoea agglomerans* va *Pseudomonas azotoformans* bakteriyalari o‘simlik patogeni *Fusarium oxysporum*, *Fusarium solani*, *Fusarium graminearum*, *Fusarium triticitum* va *Fusarium culmorum* zamburug‘lariga qarshi antogonizm faolligi yuqori ekanligi kuzatildi. Bu esa o‘simliklarda kasallik tug‘diruvchi patogenlarga qarshi preparatlar tayyorlashda ahamiyatga ega.

Qizilmiya o‘simligining endofit bakteriyalari ajratilib urug‘larining unuvchanligi hamda unish quvvatiga ta’siri o‘rganildi. Natijada urug‘lar unish quvvati va unuvchanligini oshiruvchi shtammlar - *Paenibacillus polymyxa*, *Pantoea agglomerans* va *Pseudomonas azotoformans* ekanligi aniqlandi.

G. glabra o‘simligidan ajratilgan ba’zi endofit bakteriyalar o‘simlik o‘shini jadallashtirishi kuzatildi, masalan *Paenibacillus polymyxa*, *Pantoea agglomerans* va *Pseudomonas azotoformans* urug‘lar unish quvvatini, unuvchanligini va o‘simlik o‘shini jadallashtirdi, bu esa ulardan bio-o‘g‘itlar ishlab chiqarishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqot natijalari, ildizda faol koloniyalanish, bakteriyalarning o‘simlik bilan ijobiy aloqasini asosiy mexanizmi ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* Linn) o‘simligidan ajratilgan endofit mikroorganizmlarning biologik faolligi mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qizilmiya o‘simligidan ajratilgan endofit bakteriyalar natijalari NCBI ma’lumotlar bazasida OQ874308, OQ874309, OQ874310, OQ874311, OQ874312, OQ874313, OQ874314, OQ874315, OQ874316, OQ874317, OQ874318, OQ874319, OQ874320, OQ874321, OQ874322, OQ874323, OQ874308, OQ874309, OQ874310, OQ874324, OQ874325 ID raqamlari bilan ro‘yhatdan o‘tkazildi. Natijada, ushbu xalqaro Gen bankini boyitish va ushbu sohada olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar uchun foydalanish imkoniyati yaratildi.

Hindistondagi “Sanjivani Arts, Commerce and Science College” olimlari ilmiy faoliyatlarida ushbu tadqiqot ishida ajratib olingan endofit bakteriyani qo‘llagan va ijobiy natijalar olgan va bu texnologiya nafaqat qizilmiya o‘simligini o‘shini yaxshilovchi o‘git olish, balki boshqa qishloq xo‘jalik o‘simliklariga ham tadqiq qilish mumkinligini bildirgan (“Sanjivani Arts, Commerce and Science College” 2024 yil 2-iyuldagi 531/2024-sonli ma’lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, maqsad va vazifalari asoslangan hamda tadqiqotning obykti va predmetlari tavsiflab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, natijalarni nashr etilgan ishlari va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Qizilmiya (*G. glabra*) o‘simligi xususiyatlari, tarqalishi, yetishtirish texnologiyalari va u bilan assotsiatsiyadagi mikroorganizmlar haqida adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida *G. glabra* o‘simligi ekologiyasi, O‘zbekistonda tarqalishi va foydali xususiyatlari, o‘simlikni yetishtirish texnologiyasi (bioo‘g‘itlar, qalamchalar, agrotexnologiyasi), *G. glabra* bilan assotsiatsiyada yashovchi bakteriyalar xilma-xilligi, endofit bakteriyalarning o‘simlikka foydali xususiyatlari, endofit bakteriyalarning o‘simlikka foydali ta’sir etish mexanizmlari, endofit bakteriyalarning ildizda kolloniyalanishi va unga ta’sir etuvchi omillar haqidagi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar sharhi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Qizilmiya (*G. glabra*) o‘simligidan endofit mikroorganizmlarni ajratib olish, xususiyatlarini o‘rganish, identifikatsiya qilish, urug‘lar unuvchanligi va unish quvvatiga ta’sirini, ajratilgan endofit bakteriyalarning kolonizatsiyalanish xususiyatlarini o‘rganish usul va metodlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o‘simlik va tuproq namunalarini tahlili, endofit bakteriyalarni ajratib olish, ajratib olingan endofit bakteriyalarni turini aniqlashda PZR usulida molekulyar genetik identifikatsiyasi, Senger sekvens reaksiyasi usullari, endofit bakteriyalarning o‘simlikka foydali xususiyatlari, endofit bakteriyalarning patogen zamburug‘larga nisbatan antagonistik xususiyati, endofit bakteriyalarning HCN sintez qilishi, endofit bakteriyalarda gidrolitik fermentlarni aniqlash, endofit bakteriyalarni auksin sintez qilishini aniqlash, endofit

bakteriyalarning sideroforalar hosil qilish qobiliyatini o'rganish, endofit bakteriyalarning ACC deaminaza sintezini o'rganish, endofit bakteriyalarning qizilmiya o'simligi urug'lari unish quvvati, unuvchanligiga ta'siri, endofit bakteriyalarning o'simlik o'sishi va ozuqa o'zlashtirishiga ta'siri, endofit bakteriyalarning o'simlikni o'sishiga ta'sirini o'rganish, (gnotobiotik qum sistemasida) endofit bakteriyalarning ildizda kolonizatsiyasini, endofit bakteriyalarning ildizda raqobatbardosh kolloniyalanishini, endofit bakteriyalarning sho'rlangan sharoitda o'sgan o'simlik rizosferasida yashab ketishi o'rganish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Qizilmiya o'simligidan ajratilgan endofit bakteriyalarning o'simlikka foydali xususiyatlari va ildizda kolonizatsiyasi**» deb nomlangan uchinchi bobida qizilmiya o'simligi ildizi bilan assotsiatsiyada yashovchi bakteriyalarning xilma-xilligi, endofitlarning o'simlikka foydali xususiyatlari (antagonizm faolligi, proteaza faolligi, gidrolitik fermentlar sintezi), endofit bakteriyalarining o'simlik urug'lari unib chiqishi va nish (o'simta) o'sishiga ta'siri, gonobiotik qumli tizimda o'sayotgan qizilmiyaga endofit bakteriyalar ta'siri, bakteriya bilan inokulyatsiyalangan o'simlik o'sishi va ozuqa moddalar o'zlashtirishiga ta'siri, hamda tanlab olingan endofit bakteriyalarning qizilmiyaning sho'rlangan tuproqda o'sishi va ozuqa moddalar o'zlashtirishiga ta'siri, o'simlikning N va C o'zlashtirishiga ta'siri, endofit bakteriyalarning tuproq biologik faolligiga ta'siri, endofit bakteriyalarning ildizda kolloniyalanish xususiyati, endofit bakteriyalarning ildizda raqobatbardosh kolloniyalanish xususiyati, endofit bakteriyalarning ildizda yashab ketish xususiyatlari haqida natijalar yoritilgan.


G. glabra bir qancha foydali mikroorganizmlar bilan birga yashaydi. Ildiz sistemasida ammonifikatorlar, nitrifikatorlar, oligotroflar hamda oligonitrofillar keng tarqalgan. Mikroorganizmlar tuproqlarda yilning turli mavsumlarida haroratga va namlikka qarab turli daraja tarqaladi. Qizilmiya ildiz sistemasidagi ammonifikatorlar va nitrifikatorlar bahor faslida 2,5 mln va 10 mln bo'lsa qish faslida keskin ravishda, 0,9 mln hamda 2 mln kamaydi. Qizilmiya ildiz sistemasida nitrifikatorlar ammonifikatorlardan bahorda 7,5 mln, yozda 10,2 mln, kuzda 7,2 mln va qishda 1.3 mln taga ko'p ekanligi kuzatildi. Qizilmiya ildiz sistemasidagi oligotroflar va oligonitrofillar bahor faslida 43 mln va 10,9 mln bo'lib yoz mavsumida oligotroflar kamayib 37.4 mln ga, oligonitrotroflar ortib 15,4 mln ga yetadi, qish faslida esa keskin kamayib, mos ravishda, 10,9 mln va 8,4 mln ga yetadi. Turli mavsum bo'lishiga qaramay qizilmiya ildiz sistemasida oligotroflar miqdori oligonitrofillar miqdoridan ko'p ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari endofitlar o'simlikning ozuqa zahira to'planadigan qismi ildizida ko'p uchraydi, shu sababli ildizidan endofit ajratib, ularning xilma xilligi o'rganildi. Qizilmiyadan 40 bakteriya ajratildi, va RFLP tahlilidan so'ng, faqat 18 ta bakterial shtamm keyingi tadqiqotlarda qo'llanildi. Bakteriyalar turigacha aniqlanib NCBI GenBankda ro'yxatga olindi (1-jadval). *G. glabra* to'qimalarida ikkita bo'limga tegishli 18 tur mavjud: Pseudomonadota (GU2, GU3, GU4, GU6, GU7, GU8, GU10, GU11, GU12, GU13, GU15, GU16, GU17, GU18) va Bacillota (GU1, GU5, GU9, GU14). Ular *Paenibacillus polymyxa*, *Achromobacter piechaudii*, *Enterobacter*

hormaechei, *Pantoea ananatis*, *Paenibacillus amylolyticus*, *Achromobacter xylosoxidans*, *Pseudomonas azotoformans*, *Enterobacter ludwigii*, *Bacillus velezensis*, *Escherichia coli*, *Enterobacter cloacae*, *Kosakonia cowanii*, *Citrobacter freundii*, *Bacillus cereus*, *Enterobacter hormaechei*, *Pantoea gaviniae*, *Klebsiella pneumoniae* ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Qizilmiya o'simligi ildizidagi endofit bakteriyalar identifikatsiyasi

Gen bankiga kiritilgan izolyatlar (Ajratilgan shtammlar)				Gen bankidagi eng yaqin moslik		
Shtamm	Tur	So'rov uzunligi (bp)	Ro'yxatga olingan raqam	Mos shtamm	Ro'yxatga olingan raqam	O'xshashlik (%)
GU1	<i>Paenibacillus polymyxa</i>	1465	OQ874308	<i>Paenibacillus polymyxa</i> KCTC 3627	HE981792.1	99.93%
GU2	<i>Achromobacter piechaudii</i>	1375	OQ874309	<i>Achromobacter piechaudii</i> B4b52	MK737340.1	99.93
GU3	<i>Enterobacter hormaechei</i>	1439	OQ874310	<i>Enterobacter hormaechei</i> subsp. Hoffmannii GU-HP12	OQ421693.1	99.86
GU4	<i>Pantoea ananatis</i>	1464	OQ874311	<i>Pantoea ananatis</i> 0201935	AJ629190.1	99.8
GU5	<i>Paenibacillus amylolyticus</i>	1419	OQ874312	<i>Paenibacillus amylolyticus</i> C2	LN827736.1	99.93
GU6	<i>Achromobacter xylosoxidans</i>	1423	OQ874313	<i>Achromobacter xylosoxidans</i> 17SIN-B2	LC610746.1	99.86
GU7	<i>Pseudomonas azotoformans</i>	1456	OQ874314	<i>Pseudomonas azotoformans</i> JCM 20222	LC654882.1	99.93
GU8	<i>Enterobacter ludwigii</i>	1461	OQ874315	<i>Enterobacter ludwigii</i> 7D2C3	MN371803.1	99.79
GU9	<i>Bacillus velezensis</i>	1449	OQ874316	<i>Bacillus velezensis</i> HAB-2	MT375545.1	99.93
GU10	<i>Escherichia coli</i>	1457	OQ874317	<i>Escherichia coli</i> MCn2	OP727288.1	100
GU11	<i>Enterobacter cloacae</i>	1464	OQ874318	<i>Enterobacter cloacae</i> ATCC 13047	NR_102794.2	100
GU12	<i>Kosakonia cowanii</i>	1404	OQ874319	<i>Kosakonia cowanii</i> Gm0511	MN327620.1	99.86
GU13	<i>Citrobacter freundii</i>	1465	OQ874320	<i>Citrobacter freundii</i> RTE-E5	LC572264.1	99.8
GU14	<i>Bacillus cereus</i>	1492	OQ874321	<i>Bacillus cereus</i> KUBOTAB5	MK855405.1	99.87
GU15	<i>Enterobacter hormaechei</i>	1354	OQ874322	<i>Enterobacter hormaechei</i> 0992-77	NR_042154.1	99.85
GU16	<i>Pantoea gaviniae</i>	1483	OQ874323	<i>Pantoea gaviniae</i> LMG 25382	AB907786.1	99.87
GU17	<i>Klebsiella pneumoniae</i>	1431	OQ874324	<i>Klebsiella pneumoniae</i> PD10	LC093514.1	99.79
GU18	<i>Pantoea agglomerans</i>	1422	OQ874325	<i>Pantoea agglomerans</i> HTP	MT635441.1	99.79



1-rasm. *G. glabra* dan ajratib olingan endofitik bakteriyalarning NCBI GenBankida ro'yxatga olingan mos shtamm bilan birgalikdagi filogenetik daraxti (GU1 – GU18).

Yakuniy ma'lumotlar to'plamida jami 1567 pozitsiya mavjud edi. Evolyutsion tahlillar MEGA X da o'tkazildi.

2-jadvalda qizilmiyadan ajratilgan endofit bakteriyalarning o'simlik uchun foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. *P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15 va *P. agglomerans* GU18 bakteriya izolyatlari auksin sintez qilishi aniqlandi. 18 ta bakteriyadan 4 tasi sideroforlar ishlab chiqarishi kuzatildi.

8 bakterial izolyatda *P. polymyxa* GU1, *A. piechaudii* GU2, *P. amylolyticus* GU5, *P. azotoformans* GU7, *E. cloacae* GU11, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15 va *P. agglomerans* GU18 ACC deaminaza sintez qilishi kuzatildi, hamda 9 shtamda vodorod sianidi (HCN) ishlab chiqarilishi kuzatilgan. Siderofora ishlab chiqaradigan shtammlar: *E. hormaechei* GU3, *A. xylosoxidans* GU6, *B. cereus* GU14, *P. agglomerans* GU18.

Shuningdek, shtammlar zamburug' hujayra qobig'ini yemiradigan fermentlarni (proteazalar, lipazalar, glukanaza va xitinaza) sintez qilishi aniqlandi. 8 ta bakteriya izolyatda kamida 2 tadan tekshirilayotgan ferment sintezlashi aniqlandi. Lipaza ishlab chiqaradigan shtammlar: *P. ananatis* GU4, *P. azotoformans* GU7, *E. ludwigii* GU8, *B. velezensis* GU9, *E. cloacae* GU11, *K. cowanii* GU12, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15, *K. pneumoniae* GU17, *P. agglomerans* GU18.(2-jadval).


2-jadval

Qizilmiyadan ajratilgan endofit bakteriyalarning o'simlikka foydali xususiyatlar

Endofit bakteriyalar	HCN	Lipaza	Glukanaza	Proteaza	Xitinaza	Auksin	ACC-deaminaza	Siderofora
<i>P. polymyxa</i> GU1	+	-	+	+	+	+	+	-
<i>A. piechaudii</i> GU2	-	-	-	-	-	-	+	-


<i>E. hormaechei</i> GU3	+	-	-	-	+	-	-	+
<i>P. ananatis</i> GU4	-	+	-	-	+	-	-	-
<i>P. amylolyticus</i> GU5	+	-	+	+	+	+	+	-
<i>A. xylooxidans</i> GU6	+	-	+	+	+	+	-	+
<i>P. azotoformans</i> GU7	+	+	-	-	+	+	-	-
<i>E. ludwigii</i> GU8	+	+	-	-	-	-	+	-
<i>B. velezensis</i> GU9	+	+	+	+	-	-	-	-
<i>E. coli</i> GU10	-	-	+	+	-	-	-	-
<i>E. cloacae</i> GU11	+	+	-	-	-	-	+	-
<i>K. cowanii</i> GU12	-	+	-	-	+	-	-	-
<i>C. freundii</i> GU13	+	-	+	+	-	-	-	-
<i>B. cereus</i> GU14	+	+	+	+	-	+	+	+
<i>E. hormaechei</i> GU15	-	+	+	+	-	-	+	+
<i>P. gaviniae</i> GU16	-	-	-	-	-	-	-	-
<i>K. pneumoniae</i> GU17	-	+	-	-	+	-	-	-
<i>P. agglomerans</i> GU18	+	+	+	+	+	+	+	-

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, lipaza ishlab chiqaradigan shtammlar: *P. ananatis* GU4, *P. azotoformans* GU7, *E. ludwigii* GU8, *B. velezensis* GU9, *E. cloacae* GU11, *K. cowanii* GU12, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15, *K. pneumoniae* GU17, *P. agglomerans* GU18




2-rasm. Lipaza faolligi- GU1, GU4, GU7, GU8, GU10, GU18 shtammlarida ko‘rinishi

Glukanaza ishlab chiqaradigan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylooxidans* GU6, *B. velezensis* GU9, *E. coli* GU10, *C. freundii* GU13, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18. Proteaza ishlab chiqaradigan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylooxidans* GU6, *B. velezensis* GU9, *E. coli* GU10, *C. freundii* GU13, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18



3-rasm. Proteaza faolligi- GU1, GU5, GU9, GU18 shtammlarida ko‘rinishi

Xitinaza ishlab chiqaradigan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *E. hormaechei* GU3, *P. ananatis* GU4, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxidans* GU6, *P. azotoformans* GU7, *K. cowanii* GU12, *K. pneumoniae* GU17, *P. agglomerans* GU18.



4-rasm. Xitinaza faolligi- GU1, GU4, GU7, GU18 shtammlarida ko‘rinishi

Auksin sintezi faol shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxidans* GU6, *P. azotoformans* GU7, *B. cereus* GU14, *P. agglomerans* GU18.


3-jadval

Qizilmiyadan ajratilgan endofit bakteriyalarning fitopatogen zamburug‘larga qarshi antagonizmi

Endofit bakteriyalar	<i>F. oxysporum</i>	<i>F. culmorum</i>	<i>F. solani</i>	<i>F. triticinum</i>	<i>F. graminearum</i>
<i>P. polymyxa</i> GU1	+	+	+	+	+
<i>A. piechaudii</i> GU2	-	-	-	-	-
<i>E. hormaechei</i> GU3	-	-	-	-	-
<i>P. ananatis</i> GU4	-	-	-	-	-
<i>P. amylolyticus</i> GU5	-	-	-	-	-
<i>A. xylosoxidans</i> GU6	-	-	-	-	-
<i>P. azotoformans</i> GU7	-	+	+	+	+
<i>E. ludwigii</i> GU8	-	-	-	-	-
<i>B. velezensis</i> GU9	-	-	-	-	-
<i>E. coli</i> GU10	-	-	-	+	-
<i>E. cloacae</i> GU11	-	-	-	-	-
<i>K. cowanii</i> GU12	-	-	-	-	-
<i>C. freundii</i> GU13	-	-	-	-	-
<i>B. cereus</i> GU14	-	-	-	-	-
<i>E. hormaechei</i> GU15	+	-	+	+	+
<i>P. gaviniae</i> GU16	-	-	-	-	-
<i>K. pneumoniae</i> GU17	-	-	-	-	-
<i>P. agglomerans</i> GU18	+	+	+	+	+

Endofit bakteriya izolyatlarning antifungal faolligi beshta fitopatogen zamburug‘lar: *F. culmorum*, *F. oxysporum*, *F. solani*, *F. graminearum* va *F. triticinum* ga qarshi aniqlandi (3-jadval). Sinovdan o‘tkazilgan barcha endofit bakteriyalar orasida *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7 va *P. agglomerans* GU18 izolyatlari sinovdan o‘tgan beshta o‘simlikda patogen qo‘zg‘atuvchi zamburug‘iga (*F. culmorum*, *F. oxysporum*, *F. solani*, *F. graminearum* va *F. triticinum*) qarshi kuchli ingibirlovchi ta‘sir ko‘rsatdi. Zamburug‘larning hujayra devorini yemiradigan fermentlarni ishlab chiqaruvchi shtammlar (xitinaza, lipaza va proteaza) fitopatogen zamburug‘larga qarshi antagonistik ta‘sir ko‘rsatadi va o‘simliklarni ular tomonidan kelib chiqqan kasalliklaridan himoya qilishi mumkin.

Ajratilgan barcha endofitlar *F. oxysporum*, *F. solani*, *F. graminearum*, *F. triticinum*, *F. culmorum* patogen zamburug‘lariga antogonizmi tekshirildi. Natijalar jadvalda va rasmlarda keltirilgan.



5-rasm. Endofit bakteriyalar tomonida patogen zamburug'larni ingibirlanishi.

1 - PPB-13 (GU1) *Paenibacillus polymyxa*, INB-22 (GU18) *Pantoea agglomerans* endofit bakteriyalar tomonidan *F. gramenarium* ning o'sishi ingibirlanishi


2,3 - PPB-13 (GU1) *Paenibacillus polymyxa*, INB-22 (GU18) *Pantoea agglomerans*, PNB-15 (GU7) *Pseudomonas azotoformans* endofit bakteriyalari tomonidan *F.triticinum* ning o'sishi ingibirlanishi

4,5- IYB-2 (GU3) *E. hormaechei*, PNB-15 (GU7) *Pseudomonas azotoformans*, PPB-13 (GU1) *Paenibacillus polymyxa* va INB-22 (GU18) *Pantoea agglomerans* endofit bakteriyalar tomonidan *F.culmorium*ning o'sishi ingibirlanishi

6 - INB-22 (GU18) *Pantoea agglomerans* va PPB-13 (GU1) *Paenibacillus polymyxa* endofit bakteriyalar tomonidan *F. solaniga* patogen zamburug'ining o'sishi ingibirlanishi

3-jadvalda ko'rinib turibdiki, *F. oxysporum* fitopatogen zamburug'ini o'sishini ingibirlagan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18; *F. culmorium* fitopatogen zamburug'ini o'sishini ingibirlagan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7, *P. agglomerans* GU18; *F. solani* fitopatogen zamburug'ini o'sishini ingibirlagan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18; *F. triticinum* fitopatogen zamburug'ini o'sishini ingibirlagan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7, *E. coli* GU10, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18; *F. graminearum* fitopatogen zamburug'ini o'sishini ingibirlagan shtammlar: *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18.

Bundan tashqari, bakterial inokulyatsiyaning qizilmiya urug'ining unib chiqishiga ta'siri ham aniqlandi.



6-rasm. Bakterial izolyatlarning urug'larning unib chiqishiga ta'siri

Urug'larning unib chiqishi bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, *G. glabra* urug'larining unib chiqishi bakteriya bilan

inokulyatsiyalangan urug'larga nisbatan $57 \pm 2,1$ % ga past bo'lgan. Bakterial izolatlar bilan inokulyatsiyalangan urug'larning unib chiqishi ortdi (6 rasm).

P. polymyxa GU1, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18 urug'larning unib chiqishini mos ravishda 75 ± 2.4 , 70 ± 3.1 va 70 ± 2.9 ga oshirdi. Boshqa bakterial izolyatlar *P. amylolyticus* GU5, *P. azotoformans* GU7, *B. cereus* GU14 o'simlik uchun foydali belgilarga ega bo'lganlar inokulyatsiyadan so'ng urug'ning unuvchanligini nisbatan pastroq ($65 \pm 3,2$) ko'rsatdi.

4-jadval


Bakterial inokulyatsiyaning qizilmiya urug'ining unib chiqishi va nish o'sishiga ta'siri.

Bakteriya shtammlari	Urug' unuvchanligi (%)	Nishlar uzunligi (cm)
Nazorat (bakteriya ta'sir etmagan)	57 ± 2.1	2.45 ± 0.7
<i>Paenibacillus polymyxa</i> GU1	$75 \pm 2.4^*$	$4.75 \pm 0.9^*$
<i>Paenibacillus amylolyticus</i> GU5	65 ± 2.9	2.6 ± 0.3
<i>Achromobacter xylosoxidans</i> GU6	$68 \pm 2.2^*$	$4.25 \pm 0.4^*$
<i>Pseudomonas azotoformans</i> GU7	65 ± 1.9	$4.75 \pm 0.9^*$
<i>Bacillus cereus</i> GU14	65 ± 2.0	3.65 ± 0.7
<i>Enterobacter hormaechei</i> GU15	$70 \pm 3.1^*$	2.95 ± 0.3
<i>Pantoea agglomerans</i> GU18	$70 \pm 2.9^*$	$3.35 \pm 0.6^*$

* $P \leq 0.05$

10 kunlik inkubatsiyadan so'ng, nazoratdagi o'simtalarning uzunligi 2,45 cm ni tashkil etdi, *P. polymyxa* GU1, *A. xylosoxidans* GU6 va *P. azotoformans* GU7 ko'chat uzunligini 4,25 cm ga oshirdi. *P. amylolyticus* GU5 va *E. hormaechei* GU15 o'simta o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qilmaganligi kuzatildi.

G. glabra ning dastlabki tuzga chidamliligi va tuzdan zararlangan o'simliklarga (50 mM NaCl) endofitik bakterial inokulyatsiya ta'sirini gnotobiotik qum tizimi yordamida aniqlandi (7-rasm).



7-rasm. Endofit bakteriyalarning (*P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxidans* GU6, *P. azotoformans* GU7, *B. cereus* GU14 and *E. hormaechei* GU15 va *P. agglomerans* GU18) *G. glabra* o'sishiga ta'siri. A) o'simlik ildiz poya uzunligi, B) o'simlik vazni. (O'simliklar 50 mM NaCl li gnotobiotik qum sharoitida 20 kun davomida o'stirildi).

Natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, *P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxydans* GU6, *P. azotoformans* GU7 va *P. agglomerans* GU18 izolatlar bilan inokulyatsiyalangan variantdagi qizilmiya, nazorat variantiga ya'ni bakteriya bilan

ishlov berilmagan variantga nisbatan ho‘l massasi 36% ga, ildiz uzunligi 15.2% ga va poya uzunligi 36% ga oshdi.

5-jadval

Endofit bakteriyalarning qizilmiya poya va ildiz o‘shishiga ta’siri


O‘simlik	Nazorat	GU1	GU5	GU6	GU7	GU14	GU15	GU18
Yashil (ho‘l) massasi								
Poya	6.38±0.47	10.83±0.55	6.25±0.39	9.07±0.39	10.03±0.33	7.66±0.45	7.36±0.50	9.05±0.43
Ildiz	2.90±0.24	5.60±0.41	2.80±0.23	3.66±0.39	4.69±0.25	3.1±0.23	4.01±0.38	4.83±0.40
Quruq massasi								
Poya	1.98±0.11	3.21±0.38*	1.84±0.12	2.93±0.15*	3.17±0.35*	2.31±0.11	2.09±0.09	3.41±0.17*
Ildiz	1.12±0.19	1.91±0.16*	1.06±0.15	1.66±0.12	1.95±0.22*	1.39±0.10	1.35±0.18	1.90±0.12*

Yulduzchali qiymatlar $P \leq 0,05$ da sezilarli farqlarni ko‘rsatadi. (*P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxydans* GU6, *P. azotoformans* GU7, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18).

Biroq, *B. cereus* GU14 va *E. hormaechei* GU15 bilan inokulyatsiyalangan o‘simliklar nazorat varianti bilan solishtirganda sezilarli farq yoki ta’sir yo‘qligi kuzatildi (7-rasm). Eng yaxshi o‘simlik o‘shishini stimullovchi bakterial izolyatlar *P. agglomerans* GU18 va *P. azotoformans* GU7 ekanligi aniqlandi.

Issiqxona sharoitida sho‘rlangan tuproqli tuvallarda o‘simliklarning o‘shishiga avvalgi tajribalardan tanlangan bakteriyalarning ta’siri o‘rganildi. O‘simliklar sho‘rlangan tuproqda 8 hafta davomida o‘stirildi. *P. polymyxa* GU1, *A. xylosoxydans* GU6, *P. azotoformans* GU7 va *P. agglomerans* GU18 bilan ta’sir etilgan o‘simlik poyasining yashil massasi 69, 42, 57, 55% ga, ildizlar esa mos ravishda 83, 26, 61, 66% ga oshgan (5-jadval).

Endofit bakteriyalarning o‘simlikning N va C o‘zlashtirishiga ta’sirini o‘rganishda bakteriyalar bilan ishlov berilgan o‘simlik N va C o‘zlashtirishni yaxshiladi (8-rasm)




8-rasm. Endofitlarning qizilmiya N miqdori (A) va C miqdoriga (B) o‘zlashtirishiga ta’siri (%)

Bakteriyalar bilan ishlov berilgan o‘simlik N o‘zlashtirishi o‘rganilganda, N miqdori *P. polymyxa* GU1 bilan ishlov berilganda 2.497 % ga, *P. azotoformans* GU7 da 2.676 % ga va *P. agglomerans* GU18 da 2.51 % ga teng bo‘lib N miqdoriga eng yaxshi ta’sir ko‘rsatgan shtamm *P. azotoformans* GU7 bo‘lib, nazorat variantidan 0.45 % ga ko‘p ekanligi aniqlandi.

Bakteriyalar bilan ishlov berilgan o‘simlik C o‘zlashtirishi o‘rganilganda, C miqdori *P. polymyxa* GU1 bilan ishlov berilganda 43.8 % ga, *P. azotoformans* GU7 da 45.11 % ga va *P. agglomerans* GU18 da 44.17 % ga teng bo‘lib, C miqdoriga eng yaxshi ta’sir ko‘rsatgan shtamm *P. azotoformans* GU7 bo‘lib, nazorat variantidan 1.9 % ga ko‘p ekanligi aniqlandi.

Endofit bakteriyalar bilan inokulyatsiya qilingan rizosfera tuproqning biologik faolligi o‘rganildi. Proteaza faolligi o‘rganilganda, proteaza miqdori *P. polymyxa* GU1 da 19.76 (ug NH₄⁺-N g/h) ga, *P. azotoformans* GU7 da 22.45 (ug NH₄⁺-N g/h) ga va *P. agglomerans* GU18 da 21.11 (ug NH₄⁺-N g/h) ga teng bo‘lib eng yaxshi natija ko‘rsatgan shtamm *P. azotoformans* GU7 bo‘lib, nazorat variantidan 4.57 (ug NH₄⁺-N g/h) ga ko‘p ekanligi aniqlandi (9-rasm)




9-rasm. Bakteriya bilan ishlov berilgan o‘simlik ildiz tuprog‘ining (A) proteaza, (B) FDA va (C) fosfomonoestaza faolligi.

FDA faolligi o‘rganilganda- FDA miqdori *P. polymyxa* GU1 da 13.7 (mg kg⁻¹h⁻¹) ga, *P. azotoformans* GU7 da 16.2 (mg kg⁻¹h⁻¹) ga va *P. agglomerans* GU18 da 14.33 (mg kg⁻¹h⁻¹) ga teng bo‘lib eng yaxshi natija ko‘rsatgan shtamm *P. azotoformans* GU7 bo‘lib, nazorat variantidan 5.17 (mg kg⁻¹h⁻¹) ga ko‘p ekanligi aniqlandi.

Fosfomonoestaza faolligi o‘rganilganda, fosfomonoestaza miqdori *P. polymyxa* GU1 da 500 (ug pNP g/soil/h) ga, *P. azotoformans* GU7 da 506.2 (ug pNP g/soil/h) ga va *P. agglomerans* GU18 da 440.4 (ug pNP g/soil/h) ga teng bo‘lib eng yaxshi natija ko‘rsatgan shtamm *P. azotoformans* GU7 bo‘lib, nazorat variantidan 69.6 (ug pNP g/soil/h) ga ko‘p ekanligi aniqlandi.

Qizilmiya ildizida bakteriyalarning kolonizatsiyasi aniqlandi. Tajribamiz shuni ko‘rsatdiki, *P. azotoformans* GU7 da ildizda koloniyalanish soni- KHB soni 11,9 x 10³ KHB cm⁻¹, *P. polymyxa* GU1 va *P. agglomerans* GU18 izolatlarida ildizda KHB soni mos ravishda - 8,76 va 8,10·10³ KHB cm⁻¹. *B. cereus* GU14 va *E. hormaechei* GU15 da kamroq kolonizatsiya kuzatildi mos ravishda 5,55 va 4,01 ·10³ KHB cm⁻¹ ni tashkil etdi (10-rasm).

Endofit bakteriyalar tuproqda va o‘simlik ildizida ozuqa uchun raqobatda bo‘lishadi. Tajribalarda endofitlarning raqobatbardosh koloniyalanish xususiyati, faol koloniyalanuvchi hisoblanuvchi *P. putida* TSAU1 shtammiga nisbatan o‘rganilgan. Endofitlar orasida *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7, shtamlari ildizda raqobatbardosh koloniyalanish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.



10-rasm. O‘simlik ildizida endofit bakteriyalarning koloniyalanish qobiliyati (KHB/ 1 sm idliz), (*P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxydans* GU6, *P. azotoformans* GU7, *B. cereus* GU14, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18).

Ular *P. putida* TSAU1 shtammiga nisbatan rizosferada ko‘proq koloniyalandi (6-jadval). Eng yaxshi koloniyalanuvchi bakteriya soni (ildiz uchida $4.7 \cdot 10^4$ KHB/cm⁻¹ (GU1) va $7.7 \cdot 10^4$ KHB/cm⁻¹ (GU7) kabi miqdorini tashkil etadi. *A. xylosoxydans* GU6 va *P. agglomerans* GU18 bakteriyalari raqobatchi bakteriyaga nisbatan koloniyalanishi sustroq ekanligi aniqlandi.

6-jadval

Qizilmiya ildiz uchida bakteriyalarning raqobatbardosh koloniyalanish xususiyati (*P. putida* TSAU1, raqobatdagi bakteriyali shtamm)

Bakteriya	Belgisi	10 ⁴ (KHB)/cm±SD	
		Endofit bakteriya	Raqobatchi bakteriya TSAU1
<i>P. polymyxa</i>	GU1 / TSAU 1	4.70 ± 1.21	3.52 ± 0.72
<i>A. xylosoxydans</i>	GU6/ TSAU1	3.10 ± 1.32	4.04 ± 1.34
<i>P. azotoformans</i>	GU7/ TSAU 1	7.70 ± 0.89	6.21 ± 0.82
<i>P. agglomerans</i>	GU18/ TSAU 1	2.04 ± 0.61	3.67 ± 1.74

Quyidagi jadvalda ko‘rinib turibdiki, *P. polymyxa* GU1 koloniya hosil qilish birligi $4.7 \cdot 10^4$ ga teng bo‘lib, raqobatchi bakteriya TSAU1 ga nisbatan $1.18 \cdot 10^4$ ga ko‘p. *A. xylosoxydans* GU6 shtammi esa $3.10 \cdot 10^4$ KHB ni hosil qilsa, raqobatchi bakteriya TSAU1 $4.04 \cdot 10^4$ KHB ni hosil qilgan. *P. azotoformans* GU7 shtammi $7.7 \cdot 10^4$ KHB ga teng bo‘lib, raqobatchi bakteriyalarga nisbatan, $1.49 \cdot 10^4$ KHB ga yuqori natija ko‘rsatgan. *P. agglomerans* GU18 shtammi $2.04 \cdot 10^4$ KHB ga teng bo‘lib, raqobatchi bakteriyadan $1.63 \cdot 10^4$ KHB ga kam koloniya hosil qilgan. Natijalardan ma’lumki, eng yaxshi koloniyalanish birligini hosil qilgan bakteriya shtamlari: *P. polymyxa* va *P. azotoformans* ekanligi aniqlandi.

Endofit bakteriyalarning ildizda yashab ketish xususiyati tekshirildi. Bakteriyalarning ildizda kolonizatsiyasini o‘rganish muhim, bakteriya qancha faol bo‘lmasin ildizda kolonizatsiyalanmas ekan, uning o‘simlikka ta’siri sezilmaydi. Faol bakteriyalarning o‘simlik ildizdida yashab ketish xususiyati rifampizinga chidamli bo‘lgan shtamlar orqali aniqlandi. *P. polymyxa* GU1 va *P. azotoformans* GU7, bakterial shtamlar o‘simlik ildizida ikki oy davomida koloniyalanishi aniqlandi. *P. polymyxa* GU1 $16.25 (10^3 \text{ KHB/gr ildiz})$ ko‘rsatgan bo‘lsa *P. azotoformans* GU7 esa $25.1 (10^3 \text{ KHB/gr ildiz})$ ni ko‘rsatdi. Ular tabiiy holatda o‘sgan qizilmiya ildizida yashab ketish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.

XULOSALAR

Qizilmiya (*G. glabra*) o‘simligidan ajratilgan endofit mikroorganizmlarning biologik faolligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qizilmiya (*G. glabra*) o'simligidan 18 ta izolyat ajratib olindi va molekulyar identifikatsiya qilindi. Bu bakterialar *P. polymyxa*, *A. piechaudii*, *E. hormaechei*, *P. ananatis*, *P. amylolyticus*, *A. xylosoxidans*, *P. azotoformans*, *E. ludwigii*, *B. velezensis*, *E. coli*, *E. cloacae*, *K. cowanii*, *C. freundii*, *B. cereus*, *E. hormaechei*, *P. gaviniae*, *K. pneumoniae* ekanligi aniqlandi.

2. *P. polymyxa* GU1, *E. hormaechei* GU15, *P. agglomerans* GU18 urug'larning unib chiqishini mos ravishda $75\% \pm 2.4$, $70\% \pm 3.1$ va $70\% \pm 2.9$ ga oshirdi. Shuningdek, bakterial izolyatlar, nazorat variantidagi urug'lar bilan solishtirganda o'simtalar o'sishini sitimulladi. Nazorat variant o'simta uzunligini 2,45 cm ni tashkil etdi, *P. polymyxa* GU1, *A. xylosoxidans* GU6 va *P. azotoformans* GU7 o'simta uzunligini 4,75 cm gacha oshirdi. Nazoratga nisbatan solishtirilganda tegishli ketma ketlikda 2.3 ± 0.07 cm, 1.8 ± 0.09 cm va 2.3 ± 0.11 cm uzunligi aniqlandi.

3. *P. polymyxa* GU1, *P. amylolyticus* GU5, *A. xylosoxidans* GU6, *P. azotoformans* GU7, *B. cereus* GU14, *P. agglomerans* GU18 bakteriyalar auksin sintezida faol va *P. polymyxa*, *P. agglomerans* va *P. azotoformans* antogonizm faolligi yuqori ekanligini kuzatildi. GU1 shtammi bakteriyalar fitopatogen zamburug' (*F. oxysporum*, *F. solani*, *F. graminearum*, *F. triticinum*, *F. culmorum*)larni, GU7 shtammi bakteriyalar fitopatogen zamburug' (*F. graminearum*, *F. triticinum*, *F. culmorum*)larni, GU18 shtammi bakteriyalar fitopatogen zamburug' (*F. solani*, *F. graminearum*, *F. triticinum*, *F. culmorum*)larni o'sishini ingibirladi.

4. Sho'rlangan sharoitda *P. polymyxa* GU1, *A. xylosoxydans* GU6, *P. azotoformans* GU7 va *P. agglomerans* GU18 bakterial inokulyatlar poyalarning yashil massasini 69, 42, 57, 55% ga, ildizlarni esa mos ravishda 83, 26, 61, 66% ga oshirgan. Tuproq sharoitida o'stirilgan o'simlik o'sishi va rivojlanishi, hamda N va C o'zlashtirishi yaxshilangani kuzatildi.

5. *P. azotoformans* GU7 da ildizda koloniyalanish soni - KHB soni $11,9 \cdot 10^3$ KHB cm^{-1} , *P. polymyxa* GU1 va *P. agglomerans* GU18 izolatlarida ildizida KHB soni mos ravishda - 8,76 va $8,10 \cdot 10^3$ KHB cm^{-1} ni tashkil etdi. Endofitlar orasida *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7, shtammlari ildizda raqobatbardosh koloniyalanish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Ular *P. putida* TSAU1 shtammiga nisbatan rizosferada ko'proq koloniyalandi. Eng yaxshi koloniyalanuvchi bakteriya soni ildiz uchida $4.7 \cdot 10^4$ KHB/ cm^{-1} (GU1) va $7.7 \cdot 10^4$ KHB/ cm^{-1} (GU7) kabi miqdorini tashkil etadi.

6. *P. polymyxa* GU1, va *P. azotoformans* GU7, bakterial shtammlar o'simlik ildizida ikki oy davomida yashab ketishi aniqlandi. *P. polymyxa* GU1 16.25 (10^3 KHB/gr ildiz) ko'rsatgan bo'lsa, *P. azotoformans* GU7 esa 25.1 (10^3 KHB/gr ildiz) ni ko'rsatdi. Ular tabiiy holatda o'sgan qizilmiya ildizida yashab ketish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.

7. O'simlik o'sishini jadallashtiruvchi, raqobatli ildizda yashab ketish xususiyatiga ega bo'lgan *P. polymyxa* GU1, *P. azotoformans* GU7 va *P. agglomerans* GU18 bakteriyalari qizilmiya uchun biologik o'g'it yaratishda qo'llanish taklif etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/14.07.2022.B/QX.10.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ И
ПРИКЛАДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО УНИВЕРСИТЕТА «ТИИИМСХ»**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ
МИРЗО УЛУГБЕКА**

МАРДОНОВА ГУЛСАНАМ УКТАМ КИЗИ

**БИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ЭНДОФИТНЫХ
МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ СОЛОДКИ
(*GLYCYRRHIZA GLABRA* LINN.)**

03.00.04 – Микробиология и вирусология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам**

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером В2023.3.PhD/В968.

Диссертация выполнена в Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета www.tiiame.uz) и информационнообразовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Эгамбердиева Дильфуза Рустамовна доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	Файзиев Вахид Бахромович доктор биологических наук, профессор Абдуллаева Юлдуз Давроновна доктор философии биологических наук (PhD)
Ведущая организация:	Ташкентский Государственный Аграрный Университет

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в __:00 часов на заседании Научного совета №DSc.03/14.07.2022.В/QX.10.06 по присуждению ученых степеней при Института фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ» (Адрес: 100000, город Ташкент, улица Кори Ниёзи, 39, Тел.: (+99871) 237-19-31, факс: (+99871) 237-38-79; e-mail: ifar@tiiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ» (зарегистрировано № __). (Адрес: 100000, г. Ташкент, улица Кори Ниёзи, 39, тел.: (+99871) 237 -19-31, факс: (+99871)237-38-79;e-mail: ifar@tiiame.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 г.

(протокол реестра № __ от «__» _____ 2024 г).

Ф.Н. Кушанов

Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученой степени, д.б.н., профессор

Ф.Б. Эшбоев

Секретарь Научного совета по присуждению ученой степени, PhD, с.н.с.

Ф. Б Файзиев

Заместитель председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В сегодняшнем времени растение солодки лекарственной (*G. glabra*) по всему миру засажено на 43,181 млн га, а запасы биологического сырья составляют 128,109 млн тонн. Продукт, полученный из этого растения, широко используется в сферах медицины, продуктов питания, косметики, легкой промышленности и сельского хозяйства. В связи с большим спросом на сырье солодки на мировом рынке ее природные площади сократились. В том числе эта сумма в Азербайджане составляет - 2200 га (3,6% от общей площади), в Кыргызстане - 902 га (1,4%), в Казахстане - 27315 га (62,6%), в России - 1763 га (2,9%), в Туркменистане - 10776 га (17,7%), в Таджикистане – 142 га (0,24%), а в Монголии – 2180 га (3,5%).

